

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA GRADUONIMLARNING ISHLATILISHI.

Palvonnaazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili 2- bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy asarlaridagi ma'nodosh birliklarning ishlatalish o'rinnlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sinonimlar, leksika, prozaik asarlar.

Abdulla Qodiriy asarlari tili ravon va ta'sirchan bo'lishi va so'zlarning rang-barang ma'no qirralardan foydalanishi barchamizga ma'lum. Asarda so'zlarning ma'nodoshlarini qo'llash badiiy asar tilini yanada tovlantirib jozibali va tushunarli qilib beradi. Asarlarida so'zlarning ma'nosini bilan birqalikda emotsiya, his-tuyg'u kechinmalarini ham sinonim so'zlar boyitib beradi. Sinonim so'zlarni ma'no qirralarini yozuvchining o'zi ham bilib turadi: "Mushtum" yor-u birodarlarining himmati bilan kengayib boradir. Bu kun elimizning eng past qismi bo'lgan ishchi-dehqon, "Mushtum" ni o'zining g'amxo'ri deb biladi, qaysiki ko'nglini yozib biladigani hasratiga esa sherik bo'ladigani deb biladi". "Uloqda" va "Jinlar bazmi" hikoyalarida bunday sinonimlar mavjud. "Chuqur ariqdan sug'orib chiqayotganimda bir to'da uloqchi chavandozlar uchrab qoldilar". Bir ikki so'zni ko'rsak, matn ichida sinonim, lekin bular o'rtasida farq ham mavjud. Uloqchi uloqdagina ot choptirib qatnashadigan shaxs sifatida aniq, tor ma'noga ega bo'lsa, chavandoz so'zi keng ma'nodadir. Uloqchi-chavandoz izohlovchi-izohlanmish munosabatining ifodalanishi ma'noni konkretlashtiryapti. "Tiriklik bilan ovora bo'lib, bog' poyasiga o'z vaqtida qarolmadim, boshqa ishlar bilan band bo'lib, bu yumush ortda qolgan edi". "Ish" so'zi semik o'sish davomida "kasb, mehnat, yumush" va boshqa faoliyat ma'nolarini ifodalashi bilan keng ma'noga ega, "yumush" so'zi esa bunday xususiyatga ega bo'lolmaydi. "Meni boshqa ishga chaqirishdi" deganda "yumush" so'zini umuman qo'llab bo'lmaydi. "Ovora bo'lmoq" va "band bo'lmoq" so'zlariga nisbatan ham xuddi shu fikrni keltirib o'tish mumkin. "U shu ish bilan band bo'lib tursin, bo'lmasa ko'p ishkal chiqaradi". Ushbu gapdag'i "band bo'lmoq" so'zi o'rniga "ovora bo'lmoq" so'zini qo'llash mumkin, ammo "U zarur faoliyat bilan band bo'ldi" gapidagi "band bo'lmoq" o'rniga "ovora bo'lmoq"ni qo'llab bo'lmaydi. "Bir chetda katta oq samovarlar qo'yilgan, bir tarafda katta qozonlar qurilgan, jaz-biz davom etardi" va "maydonning o'rta yerida yuz chog'lik yosh-qari kishilar qurshalib o'ltirib, dutor, tanbur, childirma, nog'oralar chalib bazm qilar edilar" gaplariga e'tibor beradigan bo'lsak, xuddi bularda ma'no aloqadorligi mavjudligidan boshqa narsa yo'qday ko'rindi, ammo bunga boshqacha yondashishga tog'ri keladi. Biz ushbu gaplarning asosini tashkil etuvchi "jaz-biz davom etardi", "bazm qilar edilar" qismlari sinonimlikni hosil qiladi, bu ma'nodoshlik haqida ham xuddi yuqoridagi kabi fikrlarni aytish mumkin. Yozuvchi so'z tanlashda sinonimlarning ma'no xususiyatlari bilan birga ularning stilistik bo'yog'iga ham e'tibor berishi diqqatni tortadi. Ma'lum bir uslubiy bo'yoqni ta'minlash uchun zarur bo'lgan stilistik sinonimlar har ikki hikoyada ham qo'llangan. Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasida "ovoz" so'zining turli sinonimlari keltirilgan. Ularni quyida berilgan misollarda ko'rishimiz mumkin.

"Orqadan bir yigitning ot oyog'i tovushi eshitildi",

"Hammaning uni ichiga tushib ketgan",

"Turli hayqiriq, baqirishlar, kimlarningdir dodlashlari tinimsiz davom etardi".

Ilmiy elektron jurnali

Yuqoridagi gaplarda bir tushuncha, ya’ni ovoz so‘zining sinonimlari berilgan. Birinchi gapdag‘i tovush so‘zining o‘rnida boshqa sinonimini qo‘llash matn g‘alizligini keltirib chiqaradi. Ma’lum bir shaxsning holati, uning psixik qiyofasini ochib berishda ham sinonimlarning ahamiyati beqiyosdir. Misol uchun: “Tog‘amga yalinib-yalpog‘lanib oldirgan o‘ris yuganni artib-surtib soldim-da, egarni yaxshilab tozalab, yog‘ tushsa yalagudek qilib, yarqiratib qo‘ydim-da, o‘zim chetraqdan turib kam-ko‘smini kuzatdim”. Ushbu gapdag‘i “artib-surtib, tozalab, yog‘ tushsa yalagudek qilib, yarqiratib “so‘zlari sinonim hisoblanadi. “Jinlar bazmi” hikoyasiga diqqatni qaratamiz. “Mashq sihrlit edi... men yerga singib ketarlik darajada ezilmoqda edim. Men bir notavon, ojiz bandaga aylangan edim. O‘zimni majruh his qilmoqda edim. “Notavon, ojiz, majruh” so‘zlari bir-birini darajalab kelib, ma’no bo‘yoqdorligini ta’minlaydi. Tilda bunday so‘zlarning mavjudligi yozuvchi uchun, badiiy tasvir uchun benihoya katta imkoniyat ekanligini anglash qiyin emas. A.Qodiriy asarlarida bu katta imkoniyatdan to‘laligicha, o‘ziga xos bir tarzda foydalana bilgan. Yozuvchining ma’nodosh so‘zlardan foydalanish mahoratini undan ortiq ma’nodosh birlıklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg‘un holda qo‘llashidir. Masalan, o‘zbek tilida “kamchilik, yetishmovchilik, nuqson” tarzidagi ma’nodosh so‘zlar qatoridagi “nuqson” so‘zida “kamchilik” so‘ziga nisbatan ma’noni aniqlashtirish, bo‘rttirish holati anchagini ortiq. Shuning uchun ham biz keltirmoqchi bo‘lgan parchada A.Qodiriy tegishli mazmun ifodasi uchun “nuqson” so‘zini olgan, “kamchilik” so‘zini emas, shu bilan u tasvirdagi aniqlik bilan mazmunini tushuntirgan.. “Otang qozi, akang jallod bo‘lsa, ularning ayb-u nuqsonini kimga arz qilasan”. Asarda ma’nodosh so‘zlar aksar hollarda ifodalilik, ekspressivlikning kuchayib borishi, darajama-daraja ortib borishini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Masalan, “yuz-chehra-jamol” ma’nodosh so‘zlari qatoridagi bosh so‘z sifatida “yuz” so‘zi ijobjiy belgi-xususiyatni normal holda ifodalaydi. Mazkur qatordagi “chehra” so‘zi esa ayni ma’noni kuchli ijobjiy daraja bilan bera oladi.

Masalan, “Yosh kashshofchalar, komsomollar, o‘quvchilar, fiqalilar, batrak-qo‘shchilar o‘tadilar, odamlarning qiyqirig‘-u ovozları, shod-xursandliklari yuz-u ko‘z, chehralaridan bilinib turardi”. Ko‘pincha asarlarda birdaniga bir nechta ma’nodosh so‘zlar yonma-yon qo‘llanadi va ifoda semalari belgining darajalangan holda ifodalanishiga xizmat qiladi: “Mehnatkashlar matbuotiga xususiy shaxslarning ham ma’murlarning xiyonatlari bizni mehr-muhabbat va mehr-shafqatdan ayirib qayg‘u-alam ko‘rmakka olib keladi”. Ba’zan belgining kamayib borishini darajalab ko‘rsatar ekan, yozuvchi ma’nodosh so‘zlarning har birigagina qo‘shimchasini qo‘shish bilan belgining ozayishi yana ham ta’kidlanadi: “Bir-biridan kichkinagina, katalakkina, pastakkina uychalar juda ko‘p edi”. Ma’nodosh so‘zlarning har biridan keyin “uchun” ko‘makchisini keltirish bilan darajama-daraja ortib borayotgan tushuncha belgisining alohida-alohida ta’kidlanishi ta’milanadi: “O‘qish uchun, bilim olish uchun, o‘rganish uchun, avvalo, kitob va yaxshi, durust yozishmalar zarur”. Kichik asarlarda frazeologik ma’nodoshlikning ham go‘zal namunalari mavjud. “E, kulma, ko‘nglimni ozdirasan, ta’bimni tirriq qilasan! Ko‘p kulma, diliqni qoldirasan!”. Ushbu iboralarning ma’nolarida ma’lum farqlar mavjud “ta’bimni tirriq qilasan” iborasining ma’no ko‘لامi boshqalariga nisbatan keng. So‘z ma’nosidagi ifoda semasi hissiyta’siriy bo‘yoqni bo‘rttirishga xizmat qiladi. Masalan, “Mallaboy aka bo‘limganda kolxozning gullay olmasligini, ravnaq topmasligini sezgan ba’zi o‘rtoqlari uni zo‘rlab, holi-joniga qo‘ymay kolxoza qoldiradilar va o‘zni kolxoza hosilot raisi qilib belgilaydilar”. Ba’zi bir kichik sarlarida leksik-frazeologik ma’nodoshlik tarkibidagi so‘z va iboralar birdan ortiq kelgan, bu hol obyektni detallashtirib, ikir-chikirlarigacha tasvirlashga imkon beradi: “Men tez yura olmag’on ekanman. Juda lanj, kamquvvat, harakatsiz, nimjon bola bo‘lg‘on ekanman”. Sigir sug‘oraman. ...Sening bunday gaplarga aralashishga qanday haqqing bor?!-deb Yorqoriyev bo‘kirdi. Darhaqiqat, Yoqoriyev aytganicha, sigir sug‘oradimi, ho‘kizga ichradimi, kolxozchinga tekshirishga huquqi yo‘q”. Ushbu matndagi “haq, huquq” so‘zlari, “sug‘ormoq, ichirmoq”, ”bo‘kirmoq, aytmoq”

so‘zlari faqat kontekstdagina sinonimlik hosil qiladi va shaxsni induviduallashtirish, matnni ta’sirchan qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. A.Qodiriy ba’zi hollarda favqulodda kuchaytirish maqsadida muayyan kontekstual ma’nodoshlik qatoriga faqatgina so‘zlarni emas, balki so‘z birikmalari, iboralar va hatto gaplarni ham tizadi: “Birisi oladi, birisi tortadi. Ba’zi tajribasizroqlari esankirab, nima qilishini bilmay, olazarak bo‘lib qarab turadilar”. “Ba’zi bir kekkaygan uloqchilarning gerdayishi paymol bo‘ladi, umidlari uzildi, oyoqlarini, qo‘llarini umidsizlanib cho‘zadigan holga keldi”. Shunday qilib, A.Qodiriy sinonimlar ustida qunt bilan ishlaganligiga guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev.A.O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati.Toshkent-1973
2. Yo’ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. Samarqand-1998.
3. Qodiriy A Kichik asarlar Toshkent-1969.